



**SHARQ VA G‘ARB JAMIYATLARIDA VATANPARVARLIK
QADRIYATINING MA’NAVIY-MA’RIFIY JIHATDAN
QIYOSIY TAHLILI**

Baxtiyarova Madinabonu Ikrom qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sharq va G‘arb jamiyatlarida vatanparvarlik qadriyatining shakllanishi va rivojlanishi ma’naviy-ma’rifiy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda turli sivilizatsiyalarda namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada ushbu ikki sivilizatsiyaga xos vatanparvarlik qarashlarining o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy jamiyatda vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirishda Sharq va G‘arb tajribasining ijobiy jihatlari uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, Sharq va G‘arb jamiyatlari, ma’naviy qadriyatlar, fuqarolik mas’uliyati, milliy ong, qiyosiy tahlil.

ABSTARCT

This article provides a comparative spiritual and educational analysis of the value of patriotism in Eastern and Western societies. The study examines the essence and significance of patriotism as well as its role in the development of society and its manifestation within different civilizations. The article also identifies the similarities and differences in the understanding of patriotism within these two civilizations and highlights their importance in ensuring social stability and progress. The study concludes that integrating the positive aspects of both Eastern and



Western approaches can significantly contribute to strengthening patriotic education in modern society.

Keywords: patriotism, Eastern and Western societies, spiritual values, civic responsibility, national consciousness, comparative analysis.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный духовно-просветительский анализ ценности патриотизма в обществах Востока и Запада. В исследовании раскрывается сущность и значение понятия патриотизма, его роль в развитии общества, а также особенности проявления в различных цивилизациях. В статье также выявляются сходства и различия в понимании патриотизма в данных цивилизациях и подчеркивается их значение для обеспечения общественной стабильности и развития. В результате исследования обосновывается важность объединения положительных аспектов восточного и западного опыта для дальнейшего развития патриотического воспитания в современном обществе.

Ключевые слова: патриотизм, общества Востока и Запада, духовные ценности, гражданская ответственность, национальное сознание, сравнительный.

KIRISH

Insoniyat paydo bo'libdiki, borliqda o'z makoni va go'shasiga ega bo'lishni xohlaydi. Pirovardida, bu o'z tinch osoyishta uyi yoki baxtli va farovon mamlakati bo'lishidan qat'iy nazar inson qaysidir makon va zamonga tegishlidir. Sharq azal-azaldan donishmandlik, donolik, uyg'unlik, xotirjamlik timsoli bo'lsa, G'arb ham o'z navbatida jasurlik, mardlik, liberallik va ozodlik kurashchisi bo'lib yuksalib bugungi kungacha boy ma'naviy-ma'rifiy merosi bilan yetib kelmoqda. Bunga esa uzoq o'tmish asrlari qarida yuz bergan minglagan qo'zg'alon-u, davlat to'ntarishlar va xalq ozodlik harakatlari yaqqol dalil bo'la oladi. Sharq va G'arb jamiyatlarida mavjud bu turli o'ziga xos tafovut va qaysidir ma'noda o'xshash jihatlardan biz



yetarlicha ma'naviy va ma'rifiy donolik asoslarini olishimiz mumkin. Bu orqali ushbu maqola zamirida, ikki tamaddun ichra yashiringan donolik saboqlari va kelajak avlod uchun zarur fazilatlarning yangicha axloqiy va tarbiyaviy unsurlari ko'rsatib beriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizga uzoq tarix zarvaraqlaridan ma'lumki, insoniyat ona diyori, o'zining tug'ilib tavallud topgan zaminini "Ona Vatanim!" deya ulug'lab, e'zozlab yashaydi. Inson aslida bu olamdagi boshqa biologik turlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga, ya'ni aql-zakovatga, ma'naviyat-ma'rifatga, madaniyatga, axloqqa, tafakkur, til va boshqa jihatlarga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudotdir. Shu sababli ham inson bevosita jamiyat va atrofdagi insonlardan ayro yashay olmaydi.

Zeroki, insonning o'ziga xos bo'lgan asosiy fazilatlari bu — uning axloq-odobi, ta'lim-tarbiyasi, yurtiga nisbatan muhabbati, uning tinchligi va ravnaqi yo'lidagi shaxsiy javobgarligi hisoblanib, u bevosita va bilvosita jamiyat mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Shu o'rinda I.V. Gyotening "Faust" asarida ta'kidlanadiki,

"O'tmish asrlari,
Sizningcha ular yer, biz esa samo?
O'tmish asrlariga qo'l urmang aslo,
Yecholmaysiz sirli moziy muxrini
Mashoyihlar aytgan: zamon ruhini ularning
O'z fikri, ruhi deb anglang...¹

Bugungi globallashuv davrida vatanparvarlik tushunchasi har bir jamiyatning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutayotgani sir emasdir. Vatanparvarlik fazilati esa insonning o'z yurtiga, xalqiga va milliy qadriyatlariga bo'lgan sadoqatini

¹ Iogann Volfgang Gyote. "Faust". "Yangi asr avlodi". Toshkent. 2022-yil 300-bet



ifodalab qolmay, uning o'z axloqiy fazilatlarini ham ochib beradi. Biz yuqorida tilga olganimizdek, turli sivilizatsiyalarda ushbu fazilat turlicha talqin qilinadi. Ayniqsa, Sharq va G'arb jamiyatlarida vatanparvarlikning shakllanishi tarixiy, madaniy va ma'naviy omillar bilan bog'liq holda rivojlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari har ikkala mintaqaning o'z ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va ma'rifiy jihatlari ham istinosiz turlicha hisoblanadi.

Avvalambor, Sharqga xos bo'lgan vatanparvarlik tushunchasi negizini boy madaniy-ma'rifiy, ma'naviy meros, milliy o'ziga xos qadriyatlar, urf-odat va an'analar, etnik urug'-qabilaviylik, qon-qarindoshlik, qardoshlik aloqalari tashkil etadi. Chunki, ming yillar va asrlar osha bu jihatlar Sharqda o'zgarmasdan avloddan avlodga o'tib kelib, takomillashib boraveradi. Shu orqali murg'ak bola nigohida otana qadr-qiymati, yaqin birodarchilik an'nasi, yaxshi qo'shnichilik, jamoaviylik udumlari, axillik, birdamlik, ajdodlar merosi va ona vatan himyasiga hurmat tuyg'ulari yuksalib boradi. Albatta, yorqin misol sifatida Sharq jamiyatiga xos bo'lgan "mahalla" va uning negizidagi ezgulik, sahovat, oliyjanoblik, keksalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo'stlik, ta'lim-tarbiya asoslarini misol keltirish mumkin.

Ayniqsa bu borada Sharqning yuksak donoligi va boy tajribasi mavjud bo'lib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy kabi mutafakkirlar asarlari va jaded bobolarimizning asarlari vatanparvarlik tarbiyasida asosiy manbalar hisoblanadi.

Xususan, bu borada ma'rifatparvar jadid nomoyondasi bobomiz Abdulla Avloniy Vatanni sevish va uni ardoqlashni tabiat va jamiyatning muhim qonuniyati sifatida ta'riflab: "Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rniga milliy g'oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik,



tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi.²”

Tarixdan bizga yaxshi ma’lumki, G‘arb jamiyatida vatanparvarlik tushunchasi liberal g‘oyalar, mustaqillik, ozodlik kabi tushunchalar va fuqorolik burchi bilan mustahkamlanib ketgan. Jumladan, G‘arb jamiyatlarida shaxs erkinligi va demokratiya g‘oyalari nihoyatda ildiz otgan bo‘lib, davlat va uning qonunlariga hurmat, davlat institutlariga ishonch tushunchasi bilan uyg‘inlashgan jamiyat barpo etishga harakat qilinadi. Fuqorolik esa ushbu nuqatayi nazardan, jamiyat va davlatga, mamlakatga sadoqat orqali ifodalanadi.

Bu xususda, nemis mutafakkiri Iogann Gotfrid fon Herder ta’kidlab ayatadiki, uning fikricha, vatanparvarlik siyosiy fazilatni emas, balki millatga ma’naviy bog‘lanishni anglatadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, G‘arb jamiyati doirasida vatan millat va uning o‘ziga xos tili va madaniyati bilan sinonim bo‘lib, bu xususiyat vatanparvarlik va unga birlik va uyg‘unlik tuyg‘usini beradi. Muxtasar qilib aytganda, Herder vatanparvarlikni siyosiy erkinlikni saqlash, fuqarolik pozitsiyasi bilan bog‘lash o‘rniga, o‘z vataniga muhabbatni umumiy madaniyat va xalqning ma’naviy birligini saqlash bilan bog‘lab muhimligini ta’kidlab o‘tadi.

Sharqda yakkahukmdorlik va birdamlik, qon-qarindoshlik rishtalari, boy merosni asrab-avaylash, o‘z milliy urf-odat va an’analarini saqlab qolishga urinishi kabi istaklari mushtarak bo‘lsa, G‘arb jamiyati an’analarida yoinki klassik respublika an’analarida “vatan” siyosiy institutlarning sinonimi bo‘lib, huquqiy asoda talqin qilinadi.

G‘arb tafakkuricha, millat siyosatdan oldin turadigan muhim mezon va o‘z milliy tarixiga, madaniyatiga ega bo‘lgan mustahkam poydevor, millatga uning

² Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yohud axloq”. SHarq-Toshkent. 1913-yil 16-bet



barcha o‘tmish merosiga muhabbat xalqning o‘ziga xos xususiyatni namoyon etish imkonini beradigan tabiiy moyillikni anglatadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda o‘xshashliklar ham mavjud bo‘lib, har ikkala tamaddunda vatanparvarlik o‘z vatani tarixi, boy merosi, madaniyatiga mutlaq bog‘liqlik bilan rivojlanishi va shu orqali yot unsurlar bo‘lmish, kosmopolitizm va madaniy assimilyatsiyaga qarshi turadi. Har ikkala tamaddun beshigi uzra inson aziz va mukarram hisoblanib, inson erkinligi mavjud siyosiy zulmga qarshi kurash bilan emas, balki yagona xalqning ongu tafakkurini, boy tarixini saqlab qolish va millatning qonida jo‘sh urgan ozodlik istagi bilan vatanparvarlik sadoqatini o‘zida nomoyon etadi.

Chunonchi, Sharqdan boshlab G‘arb jamiyatlari tub negizlarida xuddi ayni maqsadlar mushtarakdir, bular vatanparvarlik tuyg‘isini yuksaltirish, vatanga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga, inson huquqlarini hurmat qilishga, etnik va millatlararo milliy bag‘rikenglikga hurmat bilan munosabtda bo‘lish, o‘z ozodligi va farovonligi uchun xatto o‘z shirin jonini fido qilish kabi fazilatlar har ikki zamin uchun ham xos bo‘lgan fazilatlar sirasiga kiradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib ta’kidlaymizki, vatan va millat, xalq tarixi va boy merosi barcha millat va elatlar, yoinki, butun umumbashar insonlarining tub negizi va o‘zagi hisoblanib, muhim ahamiyatga ega ekanligi ushbu maqolada ochib berildi. Chunonchi, dunyoda har bir, har bit tushunchaning, narsaning o‘zagi, mohiyati mavjud bo‘ladi. Odamzod mohiyatini uning yaratuvchanligi, mustahkam irodasi, din-u diyonati, boshqalarga xolis yordamga kelishi, boshiga ofat-g‘am tushganida hamdardlik bildirishi, shodligiga sherik bo‘lishi, mehr-oqibati, ona yutga va millatga sadoqat va burchi, bir so‘z bilan aytganda, go‘zal ma’naviy olami tashkil etadi desak mubola‘a bo‘lmaydi. Ertangi avlod yoshlar bo‘lgani boisidan, biz avvalo bularning ahamiyatini yosh avlodga to‘g‘ri yetkazishimiz talab etiladi. Shu o‘rinda



prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala,

bu -farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir.³"

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. "Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"; Toshkent.; O'zbekiston.; 2017. 103-bet

2. Iogann Volfgang Gyote. "Faust". "Yangi asr avlodi". Toshkent. 2022-yil 300-bet

3. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yohud axloq". Sharq. Toshkent. 1913-yil 16-bet

INTERNET MANBALARI

1. google.uz

2. ziyo.uz

3. mutolaa.uz

³ "Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"; Toshkent.; O'zbekiston.; 2017. 103-bet